



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
Sadriiddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
Kolossova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor
Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor
Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent
Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Raqamli iqtisodiyot
Digital economy
Цифровая экономика



JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA KADASTR MA'LUMOTLARI INTEGRATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI

Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЦИФРОВИЗАЦИИ И ИНТЕГРАЦИИ КАДАСТРОВЫХ ДАННЫХ В АДМИНИСТРИРОВАНИИ ЗЕМЕЛЬНОГО НАЛОГА С ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ

Рамазонов Шамил Улугбек угли

IMPROVING THE MECHANISMS OF DIGITALIZATION AND CADASTRAL DATA INTEGRATION IN THE ADMINISTRATION OF LAND TAX ON INDIVIDUALS

Shamil Ulugbek ogli Ramazonov

Received: February 7, 2026 Revised: February 13, 2026 Accepted: February 16, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar tomonidan er solig'ini hisoblash va to'lash jarayonining nazariy-huquqiy asoslari hamda amaliy muammolari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi O'zbekistonda mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda er solig'ining muhim fiskal manba ekanligi, shuningdek, er resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi - jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'i amaliyotida mavjud tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Metodologik asos sifatida tahlil va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Maqolada er solig'ining mahalliy byudjet daromadlaridagi o'ri, soliqlar tortish mexanizmining amaldagi holati, raqamlashtirish jarayonlari va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Tahlil natijasida er uchastkalari bo'yicha yagona integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasining etarli darajada shakllanmaganligi, erga egalik va foydalanish huquqining huquqiy maqomida noaniqliklar mavjudligi, soliq qarzdorliklarining ortib borishi hamda soliq madaniyatining past darajasi kabi tizimli muammolar aniqlandi.

Shuningdek, er solig'i tizimini raqamlashtirishni chuqurlashtirish, kadastr va soliq organlari axborot tizimlarini integratsiyalash, soliq to'lovchilarga axborot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari mahalliy byudjet daromadlarini oshirish, soliq intizomini mustahkamlash va er resurslaridan samarali foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi hamda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Jismoniy shaxslar er solig'i, er solig'i ma'muriyatchiligi, mahalliy byudjet daromadlari, er resurslarini fiskal boshqarish, soliq bazasini aniqlash mexanizmi, er kadastr va soliq integratsiyasi.

Аннотация: В данной статье проводится системный анализ существующих проблем в сфере исчисления и уплаты земельного налога физическими лицами в Узбекистан. Актуальность исследования обусловлена возрастающей ролью земельного налога в формировании доходов местных бюджетов, а также необходимостью обеспечения эффективного и рационального использования земельных ресурсов.



Целью исследования является выявление организационно-экономических и правовых проблем в практике налогообложения земель физических лиц и разработка научно обоснованных предложений по их устранению. В качестве методологической базы использованы методы анализа и синтеза, сравнительно-правовой анализ, обобщение статистических данных и системный подход.

В статье рассматриваются значение земельного налога в доходной части местных бюджетов, текущее состояние механизма налогообложения, процессы цифровизации и направления совершенствования налогового администрирования. В результате анализа выявлены такие системные проблемы, как отсутствие единой интегрированной информационной базы данных по земельным участкам, неопределённость правового статуса отдельных земельных объектов, наличие задолженности по налоговым платежам и низкий уровень налоговой культуры населения.

Разработаны практические и нормативные рекомендации по углублению цифровизации системы земельного налогообложения, интеграции информационных систем кадастровых и налоговых органов, усилению разъяснительной работы среди налогоплательщиков и совершенствованию нормативно-правовой базы. Результаты исследования имеют научно-практическое значение и направлены на повышение доходов местных бюджетов и стимулирование эффективного использования земельных ресурсов.

Ключевые слова: Земельный налог с физических лиц, администрирование земельного налога, доходы местных бюджетов, фискальное управление земельными ресурсами, механизм определения налоговой базы, интеграция земельного кадастра и налоговой системы.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the existing challenges in the calculation and payment of land tax by individuals in Uzbekistan. The relevance of the study is determined by the growing importance of land tax in the formation of local budget revenues and the need to ensure efficient and rational use of land resources.

The purpose of the research is to identify organizational, economic, and legal problems in the practice of individual land taxation and to develop scientifically grounded proposals for their elimination. The methodological framework is based on analysis and synthesis, comparative legal analysis, statistical data generalization, and a systemic approach.

The article examines the role of land tax in local budget revenues, the current state of the taxation mechanism, digitalization processes, and directions for improving tax administration. The findings reveal key systemic issues, including the absence of a unified integrated land information database, ambiguity in the legal status of certain land plots, the existence of tax arrears, and a low level of tax culture among taxpayers.

Practical and regulatory recommendations are proposed to deepen digitalization in the land tax system, integrate cadastral and tax authority information systems, strengthen taxpayer awareness initiatives, and improve the legal framework. The results of the study have scientific and practical significance and contribute to increasing local budget revenues and promoting the efficient use of land resources.

Keywords: Land Tax on Individuals, land Tax Administration, local Budget Revenues, fiscal Management of Land Resources, tax Base Determination Mechanism, integration of Land Cadastre and Tax System.

■ KIRISH

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida O'zbekistonda soliqqa tortish tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Yangi soliq kodeksining qabul qilinishi, davlat soliq xizmati organlarining raqamlashtirilishi va "Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti" kabi innovatsion mexanizmlarning joriy etilishi mamlakatdagi soliq tizimini yanada samarali va shaffof qilishga xizmat qilmoqda. Biroq, ayniqsa er solig'i sohasida hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjud:

1. Yagona ma'lumotlar bazasining yo'qligi va er uchastkalari hisobining to'liqligi masalasi. Yer uchastkalari haqida aniq va to'liq ma'lumotlar bazasining yo'qligi, ularga egalik qilish huquqi va foydalanish holatini real vaqt rejimida aks ettirish imkonining cheklanganligi soliq bazasini shakllantirishda katta to'siq hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, er solig'i bazasining to'g'ri shakllanmasligi va soliqlarni yig'ishda kamchiliklarga olib keladi. Yagona va tizimli kadastr tizimini yaratish orqali er solig'i bazasining aniqligi oshirilishi zarur.

2. Huquqiy maqom va ma'lumotlar yangilanishidagi kamchiliklar. Ayrim hududlarda er maydonlariga nisbatan soliq to'lovchilarning huquqiy maqomi aniq emasligi, er kadastr ma'lumotlarining muntazam yangilanmasligi soliq yig'imlarining past bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu holat soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ishonchsizlikni kuchaytiradi hamda soliq siyosatining samaradorligini pasaytiradi.

3. Soliq qarzdorliklari va undirish mexanizmlarining samaradorligi. Yer solig'i bo'yicha soliq qarzdorliklari darajasi yuqori bo'lib, undirish mexanizmlari etarli darajada samarali emas. Bu moliyaviy intizomning pasayishi, nazorat tizimidagi zaiflik va qonuniy choralarni qo'llashdagi sustkashlikka olib kelmoqda. Undirish tizimini kuchaytirish, samarali monitoring va jazolar tizimini takomillashtirish lozim.

4. Soliq madaniyati va axborot etishmasligi. Aholi va tadbirkorlar orasida soliq madaniyatining pastligi, soliq majburiyatlari haqida etarlicha ma'lumot berilmasligi natijasida soliq to'lovlarining kechiktirilishi holatlari ko'p uchraydi. Soliq siyosatini ommaviy targ'ib qilish, axborot kampaniyalarini kuchaytirish va soliq



to'lovchilarga qulay xizmatlar ko'rsatish orqali bu muammo bartaraf etilishi mumkin.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI.

Yer solig'i tizimida jismoniy shaxslarning o'rni alohida ahamiyatga ega, chunki ular ko'plab mamlakatlarda er solig'i to'lovchilarining katta qismini tashkil qiladi. Jismoniy shaxslar er solig'i to'lovlari orqali mahalliy byudjetlarga daromad kiritishda ishtirok etadi, shuningdek, er resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi.

Nobel mukofoti laureati Stiglitzning soliq siyosati bo'yicha ishlari er solig'ining iqtisodiy samaradorligi va adolatligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. U soliq yukining teng taqsimlanishi, ayniqsa, jismoniy shaxslar o'rtasida soliq to'lash imkoniyatiga qarab farqlanishi haqida so'z yuritadi. Yer solig'i jismoniy shaxslar uchun mol-mulkka egalik qilish darajasiga qarab aniq va adolatli bo'lishi zarur. Soliq tizimining progressivligi kam daromadli oilalarni himoya qilishi va yuqori daromadli egalardan ko'proq soliq olinishi kerak.

Stiglitzning fikricha, er solig'i iqtisodiyotda investitsiyalarni rag'batlantirishi va er resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashi zarur. Shu bilan birga, soliq tizimi murakkab bo'lmashligi va byurokratik xarajatlarni oshirmasligi lozim [1].

Dye va England tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar jismoniy shaxslar uchun er solig'ining uy-joy narxlariga va yashash joyining tanloviga qanday ta'sir qilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Ularning fikricha, soliq stavkalari va erga soliq solish tizimi uy-joy bozorining dinamikasini belgilaydi, chunki yuqori er solig'i uy-joy xarid qilishga to'siq bo'lishi mumkin. Yer solig'ining yuqoriligi va murakkabligi jismoniy shaxslarning ko'chib o'tish qarorlariga ta'sir qiladi, bu esa ayrim hududlarda aholi zichligini kamaytirishi yoki oshirishi mumkin [2].

William Fischelning tadqiqotlari er solig'ining xususiy mulk sifatida ko'rilishiga asoslangan. Unga ko'ra, er solig'i to'lovlari jismoniy shaxslarning o'z mulklariga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Agar soliq juda yuqori bo'lsa, u investitsiya va erga sarmoya kiritishni kamaytiradi. U er solig'ining samarali bo'lishi uchun uning barqaror, tushunarli va adolatli bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi, aks holda er bozorida asossiz tebranishlar yuzaga keladi [3].

Oates mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai sifatida er solig'ining ahamiyatini o'rgangan. Uning fikricha, jismoniy shaxslarning er solig'i to'lovlari mahalliy infratuzilma va xizmatlarning moliyalashtirilishini ta'minlaydi. Shu bois soliq siyosati mahalliy darajada samarali boshqarilishi kerak. Yer solig'i jismoniy shaxslarning mahalliy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini va byudjetni qondirish imkoniyatlarini aks ettiradi [4].

David Jaegerning ishlari er solig'ining ijtimoiy adolatga ta'siri va jismoniy shaxslar o'rtasida tengsizlikni kamaytirishdagi roli haqida. Jaeger er solig'ining progressiv bo'lishi ijtimoiy tengsizlikni

kamaytirishga yordam berishini ta'kidlaydi, ayniqsa, er egasi bo'lmagan yoki kam mulkka ega shaxslar uchun bu muhimdir. Soliq siyosati erga egalik qilish darajasidagi farqlarni yumshatishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi mumkin [5].

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham O'zbekiston sharoitida er resurslarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ulardan samarali foydalanishda moliya-kredit mexanizmlarining qo'llanilishi, jumladan, ularni soliqqa tortish masalalari bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Biroq, yuqoridagi izlanishlar bizning fikrimizcha, bugungi kunda respublikamizda cheklangan tabiiy resurslarni soliqqa tortish borasidagi bir qator muammolar uchun echim bo'lishda etarli emas va bu ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i, uning soliq tizimida o'rni borasida xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Maqolada nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish, tahlil, sintez kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek soliq ma'murchiligini echimlari borasida xulosa va takliflar shakllantirilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish davrida mahalliy soliq tizimini takomillashtirish va mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Ayniqsa, mahalliy darajadagi byudjetlar daromadlarini oshirishda jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ining doimiy, bir xilda va to'liq undirilishi muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy barqarorligi va byudjet mablag'larini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yer solig'ining asosiy vazifasi er solig'ining asosiy vazifasi mahalliy byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashdir. Shuningdek, er solig'i:

- Yerdan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi;
- Tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi;
- Turli sifatdagi erlarda ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni muvozanatlashga yordam beradi;
- Aholi yashaydigan hududlarda infratuzilmani rivojlantirishni ta'minlaydi;
- Yer resurslarining talon-taroj qilinishining oldini oladi.

Yer solig'i tizimida davlat mulkdorlarining faoliyati ikki jihatdan ko'rib chiqiladi:

Bir tomonlama foydalanish: Mulkdorlarga tegishli, ammo foydalanilmayotgan yoki kam foydalanilayotgan erlarga qonuniy asosda soliq solinadi. Bu orqali mulkdorlarni o'z erlaridan samarali foydalanishga majburlash ko'zda tutilgan.

Ikkinchi tomonlama foydalanish: Davlat tomonidan faol xo'jalik yuritishga yo'naltirilgan erlar



uchun soliq solish orqali er resurslaridan oqilona foydalanish rag'batlantiriladi. Bu yondashuv er egalari o'z er uchastkalaridan samarali va oqilona foydalanishga undaydi, shuningdek mulkdorlik huquqlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirish va iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonida er solig'ining to'g'ri va samarali undirilishi muhim omil hisoblanadi. Yer solig'i nafaqat moliyaviy resurslar manbai sifatida, balki erdan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun, er solig'i siyosatini takomillashtirish, soliq mexanizmlarini samarali tashkil etish va mulkdorlarning huquq hamda majburiyatlarini aniq belgilash orqali mahalliy byudjetlarning barqarorligini ta'minlash mumkin.

Ushbu soliqning vazifasi moliyaviy nuqta'i nazardan olganda, rag'batlantiruvchi va nazorat qilish, mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish nuqta'i-nazaridan esa, fiskal vazifalarini bajarishdan iborat.

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va tushumlarni barqarorligini ta'minlash zarurati mavjudligi, mahalliy hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab quvvatlashda er solig'ini amal qilishini taqozo etadi.

Yer solig'ining obyektiv zarurligidan kelib chiqib, uning iqtisodiy mohiyati, bizning nazarimizda soliqqa tortiladigan er uchastkasidan foydalanish tufayli aniq bir iqtisodiy shart-sharoitlarda olinadigan muayyan o'rtacha daromadning bir qismini budjetga undirishga qaratilgan desak, yangilishmaymiz.

Soliq miqdorlarini erlar sifati, tabiiy iqlim zonalar bo'yicha tabaqalashtirish maqsadida sug'oriladigan erlar uchun soliq stavkalari ma'muriy tumanlar bo'yicha, ularni tuproqlar ball-bonitetlari buyicha 10 darajaga bo'lgan holda belgilangan. Tuproqlar boniteti dehqonchilikning hozirgi darajasida qiyoslama tabiiy hosildorlikning shartli ko'rsatkichi hisoblanadi. Bonitetni aniqlashda tuproqlarning genetik kelib chiqishi, sug'orishning qancha muddat davom etayotgani, ekin ekilishi, agroiklimiy resurslar bilan ta'minlangani, mexanik tarkibi, tuproqlarning hosil bulish genezisi, tuproq qatlamining suv o'tkaza olishi, sho'rlanganlik darajasi, eroziyaga uchraganligi, toshloqligi, zichligi hamda tuproqning boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi.

Lalmi erlar va yaylovlar zonalar yoki vertikal mintakalarga bulingan, bu erda yog'inlar bilan turlicha ta'minlanganlik shakllanadiki, ularning unumdorligi shu holatlar bilan bog'liqdir.

Qishloq joylarda joylashgan er uchastkalarining joylashgan joyi buyicha solik miqdorlarini tabaqalashtirish maqsadida ma'muriy va sanoat markazlari atrofidagi stavkalarga 1,1 dan 1,3 ga qadar oshiruvchi koeffitsientlar belgilangan.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'ini mahalliy hudud bo'yicha o'rganar ekanmiz, albatta uning shu hudud mahalliy byudjeti daromadlarida tutgan o'rnini va salmog'ini tahlil qilishimiz lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari tarkibida jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i bo'yicha quyidagi ma'lumotlar o'rganildi.

1-jadval

O'zbekistonda davlat byudjeti tarkibida er solig'ining salmog'i

(mlrd. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Jami solikli daromadlari	103561,7	127970,4	148388,3	165917,9	197642,8
Mahalliy byudjetga tushadigan er solig'i	2389,7	4060,5	5328,8	6890,1	7171,1
Jumladan, jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i	1079,9	1524,2	1883,9	2872,0	2895,6

Jadvaldan ko'rish mumkinki, jami solikli daromadlarning o'sishi 2020 yildan 2024 yilgacha jami solikli daromadlar doimiy ravishda o'sib bormoqda. 2020 yildagi 103561,7 mlrd so'mdan 2024 yilga kelib 197642,8 mlrd so'mga etgan. Bu taxminan 90,8% o'sishni ko'rsatadi. Bu o'sish iqtisodiy faollikning yaxshilanishi va soliqlarni yig'ishda samaradorlikning oshganidan dalolat beradi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i ham ancha oshgan: 2020 yilda 1079,9 mlrd so'm bo'lsa, 2024 yilda 2895,6 mlrd so'mga etgan. Taxminan 2,7 barobar o'sish kuzatilmoqda. Bu jismoniy shaxslar er mulkidan

soliqqa tortishda yanada faolroq jalb qilinayotganini anglatadi.

Yer solig'i, ayniqsa jismoniy shaxslardan olinadigan qismi 2022-2023 yillarda sezilarli darajada oshgan. 2023 yildagi jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i 2872 mlrd so'm bo'lib, 2022 yilga nisbatan deyarli 52% ga o'sgan. Bu soliq ma'muriyatchiligining takomillashuvi, raqamlashtirish, nazoratning kuchayishi va soliqqa tortish mexanizmlarining samaradorligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

So'nggi 5 yil ichida er solig'i ko'rsatkichlari barqaror o'sishda bo'lib, ayniqsa jismoniy shaxslardan



olinadigan er solig'i sezilarli darajada oshgan. Keyingi yillarda ham er solig'ini samarali boshqarish va soliq bazasini kengaytirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi soliqqa tortish tizimi modernizatsiyasining hozirgi bosqichida er solig'ining mohiyati, maqsad va vazifalari hamda ularni soliq to'lovchilar faoliyatiga ta'siri, budjet daromadidagi hissasini tahlil qilish va bu boradagi majud muammolarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining qabul qilinishi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar davomida bevosita soliqlar stavkalari keskin pasaytirilsa-da, er solig'i stavkalari yildan yilga oshirib borilmoqda, bu esa uning mahalliy budjet daromadlarini to'ldirishda eng muhim manba ekanligini ko'rsatadi;

- soliqqa tortish amaliyotida bo'sh turgan maydonlarning xususiy mulkdorlariga ta'sir choralari kuchaytirilganligi, urning ahamiyati qanchalik yuqoriligi ko'rsatadi;

- Yer solig'i uni to'lovchilarning iqtisodiy faoliyati natijalariga bog'liq bo'lmaydi;

- Yer solig'i davlat daromadlarining manbai sifatida barqaror, ishonchli va tushunish uchun nisbatan engil soliqqa tortish vositasi;

- Mamlakatimizda er resurslarini soliqqa tortishda rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanishning o'zi ham mavjud muammolarni bartaraf etishda samarali natijalarga olib kelishi mumkinligi;

- Mahalliy budjetlar o'zining xarajatlarini o'z mablag'i hisobidan amalga oshirilishi yo'lga qo'yilayotgan ayni paytda mahalliy budjet daromadlarining umumiy hajmida er solig'i bo'yicha tushumlar summasining barqaror salmog'ini ta'minlash zarur ekanligi.

Jismoniy shaxslarga tegishli imtiyozlarni hisobini yurituvchi yagona ma'lumotlar bazasining yo'qligi budjetga ushbu soliqni hisoblab chiqarishda quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

- * yer solig'idan imtiyozga ega fuqarolarning qat'iy hisobi yuritilmasligiga hamda prognoz ko'rsatkichlarning to'liq bajarilmasligi;

- * yer solig'idan ozod etish tarzidagi imtiyozga ega aynan bitta shaxs tomonidan bir necha tumanda joylashgan obyektlarga nisbatan imtiyozdan foydalanilyotganligi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, jismoniy shaxslar er solig'ini hisoblab chiqarish va to'lashga doir muammolar jumlasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- * mustaqillikka erishganimizdan buyon er resurslarini soliqqa tortishga doir normalar takomillashtirilmaganligi;

- * yerdan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalanganlarga tegishli tartibda jazo choralari kiritilmaganligi;

- * fuqarolarning soliqqa oid imtiyozga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etuvchi tashkilotlar bilan o'zaro

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

axborot almashinuv tizimining takomillashtirilmaganligi;

- * uzoq yillardan buyon er solig'i stavkalarini belgilash mexanizmi takomillashtirilmaganligi va boshqalar.

Yer solig'idagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish yoki uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini respublikamizdagi yutuq va kamchiliklarni, tajribasi yuqori bo'lgan xorijiy mamlakatlarning soliq tizimidagi yutuqlarini hisobga olgan holda hamda yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda quyidagi takliflarni kiritmoqchimiz:

- Soliq idoralariga tegishli tartibda mahalliy soliqlar obyektlari hamda fuqarolarning soliq to'lovchilariga nisbatan imtiyozga asos bo'luvchi hujjatlarni bevosita taqdim qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda yagona markazlashgan baza yaratish orqali ular faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish, soliq idoralariga jo'natilayotgan ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlashga erishish;

- Yer uchastkalariga adolatli soliq solish hamda ushbu soliqning mahalliy budjetdagi ulushini ko'paytirish maqsadida tomorqa xo'jaligida foydalaniladigan erlar bo'yicha er solig'i to'lashning alohida tartibini joriy etish;

- Egallab turgan er maydoni ikki tumanga tegishli subyektlarning er solig'ini to'lashda, soliqni ro'yxatdan o'tgan tuman budjetiga to'lashi, hisobotlarni esa, o'sha tuman soliq idorasiga topshirish hamda ikkinchi tumanga tegishli tartibda ma'lumotnoma olib borishni tashkil qilish kerak. Bu o'z navbatida, bir tashkilotning ikkita soliq idorasi tomonidan tekshirilishi va tekshiruvlar soni ko'payishini oldini oladi;

- Jismoniy shaxslar tomonidan er resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida, ularga ajratilgan er uchastkalaridan foydalanilmagan yoki boshqa maqsadlarda foydalanilgan hamda 2 yil va undan ortiq davrda qurilish ishlari tugallanmagan holatlari aniqlangan taqdirda 3-yildan boshlab, soliq summasiga ekvivalent miqdorda 2 koeffitsient, 4-yilda 3 koeffitsient va shu tartibda soliq summasini o'sib boruvchi tartibini joriy etish;

- Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda er solig'ini normativ va haqiqiy qiymat asosida soliqqa tortish tizimini joriy qilish;

- Jismoniy shaxslarning mol-mulk va er soliqlari o'rniga yagona ko'chmas mulk solig'ini joriy etish;

- Yerdan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalanganlarga tegishli tartibda jazo choralari kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jismoniy shaxslar er solig'i sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, samarali axborot almashinuvi tizimini yaratish, soliq stavkalarini optimallashtirish va jazo mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Shuningdek, soliq tizimini rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida modernizatsiya qilish va er resurslaridan oqilona foydalanishni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb



etadi. Ushbu chora-tadbirlar mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'ladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ramazonov Shamil Ulug'bek o'g'li Qarshi xalqaro universiteti, v.v.b dotsent/ Рамазонов Шамиль Улугбек оглы и.о. доцента Каршинского международного университета/ Ramazonov Shamil Ulugbek ogli Acting Associate Professor, Karshi International University.

email: ramazonovshamil2022@gmail.com

ORCID: [0009-0002-5954-3942](https://orcid.org/0009-0002-5954-3942)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

[1]. Stiglitz, Joseph E. Economics of the Public Sector.

[2]. Dye, Richard F., England, Richard W. "Assessing the Effects of Property Taxation on the Housing Market." Journal of Real Estate Finance and Economics, 1991.

[3]. Fischel, William A. The Economics of Zoning Laws: A Property Rights Approach.

[4]. Oates, Wallace E. "The Theory and Practice of Local Public Finance." Handbook of Public Economics, 1987.

[5]. Jaeger, David A. "Property Taxation and Inequality." National Tax Journal, 2007.

[6]. Musgrave, R. A., & Musgrave, P. B. (1989). *Public Finance in Theory and Practice*. McGraw-Hill.

[7]. Stiglitz, J. E. (2000). *Economics of the Public Sector*. New York: W.W. Norton & Company.

[8]. Tanzi, V. (2000). Taxation in an Integrating World. Washington: Brookings Institution Press.

[9]. Bird, R. M., & Zolt, E. M. (2005). The limited role of the personal income tax in developing countries.

[10]. OECD (2022). *Revenue Statistics*. OECD Publishing, Paris.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz